1 Goncharuk A.G., Karavan S. The investment attractiveness evaluation: methods and measurement features// polish journal of management studies. 2013 vol.7.

2 Gutkevych, Svitlana. Investment attractiveness of industries: features and trends. Baltic Journal of Economic Studies. 5. 50. 10.30525/2256-0742/2019-5-3-50-58. (2019).



Shuningdek, ba'zi iqtisodchilar ma'lum bir hududlarning iqtisodiy jozibadorligini baholashda ular asosan ikki kategoriyadan foydalanadilar: investitsion salohiyat va investitsion xavf, chunki bu ko'p jihatdan uning hududida mavjud bo'lgan sanoat va tarmoqlarning rivojlanishini belgilaydi, ikkinchidan, sanoatning o'zining investitsion jozibadorligini belgilaydi<sup>3</sup>.

N.S. Kanashkin va A.P. Shabalin fikriga ko'ra, sanoat kompaniyalarining sarmoyasiz kelajagi yo'q, shuning uchun investitsion jozibadorlikni oshirish muvaffaqiyatli biznes yuritish strategiyasining ajralmas qismini tashkil etadi. Zamonaviy tendensiyalar sanoat korxonalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, rivojlanishning yangi darajalariga erishish, ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish va ko'paytirish, qo'shni bozorlarga chiqish huquqini beradi. Mualliflar tadqiqotlar natijasida investitsiya jozibadorligi innovatsion rivojlanish darajasi, soha va soha kompaniyalarining salohiyati kabi omillarga bog'liq ekanligini aniqladilar. Konchilik va qazib olish sanoati korxonalari investitsion jozibadorlikka ega bo'lib, bu kompaniyalarning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi faol ishtiroki va istiqbolli innovatsion tendensiyalarga rioya qilish hisobiga sotib olingan aksiyalarning yuqori salohiyatli rentabelligini ta'minlaydi<sup>4</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Investitsion jozibadorlikning mamlakat rivojlanishiga ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VVA NATIJALAR

Kompaniyaning investitsion jozibadorligi – bu biznesning turli tomonlarini qamrab oluvchi va investorlar uchun foydani maksimal darajada oshirish imkoniyatini aniqlaydigan (mumkin bo'lgan investitsiyalarning boshqa obyektlari bilan solishtirganda) miqdoriy ko'rsatkichlar va sifat komponentlari to'plami bilan tavsiflangan faoliyat samaradorligini ko'rsatadigan iqtisodiy kategoriya. Bugungi kunda bir nechta yondashuvlar mavjud bo'lib, ularda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va turli tomonlardan korxonalarining investitsiya jozibadorligini tavsiflovchi ko'plab usullar ishlab chiqilgan.

Birinchi yondashuv moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholash.

Moliyaviy ko'rsatkichlar investorlar sarmoya kiritmoqchi bo'lgan kompaniyalar to'g'risida qaror qabul qilish-lari uchun muhim hisoblanadi. Turli xil moliyaviy ko'rsatkichlar individual investorlar, institutsional investorlar va professional tahlilchilar tomonidan qo'llaniladi.

Odatda, kompaniya haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun koeffitsiyentlar birgalikda qo'llaniladi. Muayyan koeffitsiyentdan bir nechta kompaniyalar uchun taqqoslash vositasi sifatida foydalanish kamroq xavfli yoki eng jozibadorligini aniqlashi mumkin. Bundan tashqari, o'tmishdagi natijalarni ko'rish uchun investor bugungi kundagi ma'lum ma'lumotlar uchun koeffitsiyentlarni xuddi shu koeffitsiyentlar olingan o'tgan yillardagi natijalar bilan solishtirishi mumkin. Investorlar koeffitsiyentlarni turli yo'llar bilan ishlatishlari mumkin. Umuman olganda, moliyaviy koeffitsiyentlar kompaniyani turli tomonlardan har tomonlama ko'rishni ta'minlaydi va investorlarga potentsial imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Rentabellik kompaniyaga investitsiya kiritishda tahlil qilinadigan asosiy jihatdir. Buning sababi shundaki, har doim ham yuqori daromadlar yuqori daromad yoki yuqori dividendlarni yuzaga keltiravermaydi.


Rentabellik koeffitsiyentlari kompaniya qancha foyda keltirishi va bu foyda kompaniya haqidagi boshqa muhim ma'lumotlar bilan qanday bog'liqligi haqida tushuncha berish uchun ma'lum bir vaqtdagi ma'lumotlardan foydalanadi.

Matveyev va Rezvyakova yondashuviga ko'ra, hududlarning investitsion jozibadorligi bu - mamlakatning ma'lum hududlarining investitsiyalar daromadliligi va investitsion risklar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi qulay investitsiya muhitini yaratish, investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish darajasi, investitsiya resurslarini jalb qilish imkoniyatlari va boshqa ba'zi omillarning integral sifatidir.

Shuningdek, investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari deb quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar:

3 Kapustenko I.S. Развитие инвестиционного потенциала горнодобывающей промышленности дальневосточного региона // Альманах современной науки и образования, № 5 (72) 2013. [https://www.gramota.net/articles/issn\\_1993-5552\\_2013\\_5\\_29.pdf](https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2013_5_29.pdf) Murojaat sanasi 04.07.2024

4 Канашкин, Н. С. Инвестиционная привлекательность добывающей промышленности / Н. С. Канашкин, А. П. Шабалин // Молодежная неделя науки ИПМЭиТ : Сборник трудов Всероссийской студенческой научно-учебной конференции. В 6-ти частях, Санкт-Петербург, 02–04 декабря 2022 года. Том Часть 2. – Санкт-Петербург: ПОЛИТЕХ-ПРЕСС, 2021. – С. 23-26. – EDN BJWDGH.



2-rasm. Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlar<sup>5</sup>.

Mualliflarning fikriga ko'ra, mintaqaning investitsion jozibadorligini baholash uchun quyidagi mezonlarga rioya qilish kerak:

- mintaqadagi investitsion infratuzilma darajasi;
- hududning demografik parametri;
- mintaq bozorining rivojlanish darajasi;
- mintaqada investitsiya faoliyatining ta'minlanganlik darajasi (2-rasm).

A.G. Avetisyan o'z tadqiqotlarida makroiqtisodiy darajada mamlakatlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi omillar sifatida quyidagilarni aniqlagan:

- Bozor hajmi;
- Urbanizatsiya darajasi;
- Inson kapitalining rivojlanganlik darajasi;
- Mamlakatdagi iqtisodiy integratsiya darajasi;
- Savdo rejimi;
- Ishchi kuchining qiymati;
- Valyuta kursining volatilligi;
- Siyosiy barqarorlik va boshqalar<sup>6</sup>.

Fikrimizcha, muallif tomonidan ko'rsatilgan omillar mamlakatning investitsion jozibadorligini ko'rsatibgina qolmay, balki uning iqtisodiyotining barqarorligi holatini belgilovchi asosiy omillar hamdir. Yuqoridagi omillar bilan bir qatorda fikrimizcha, ba'zi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy-huquqiy omillar ham ushbu ro'yhatda qo'shilishi lozim deb hisoblaymiz.

- Sud institutining mustaqilligi va mustaqil qaror qabul qila olish vakolati;
- Mamlakatdagi korrupsion holatning minimal darajada ekanligi;
- Investorlarning huquqlarini kafolatlovchi tizimning mavjud ekanligi
- Davlat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy institutlarining o'z vakolatlari doirasida mustaqil faoliyat yurita olish qobiliyatining o'rnatilganligi (monopoliyaga qarshi kurashuvchi tuzilmalar, raqobatni qo'llab-quvvatlash institutlari, statistika qo'mitasining shaffof va ishonchli faoliyati va hokazo).

Jahon banki tomonidan tayyorlanadigan Global Competitiveness Report (Global Raqobatbardoshlik bo'yicha hisobot)da dunyo mamlakatlari raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda bir qancha kategoriyalar asosida baholanadilar. Ular quyidagilar:

1. Institutlar;
2. Infratuzilma;
3. AKT ni joriy etish darajasi;
4. Makroiqtisodiy barqarorlik;
5. Sog'liq;
6. Ko'nikma va mahoratlar;
7. Mahsulot bozori;

<sup>5</sup> Матвеев, В. В. Инвестиционная привлекательность регионов в современных реалиях / В. В. Матвеев, И. В. Резвякова // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. – 2020. – Т. 10, № 4. – С. 114-124. – EDN JATBND.

<sup>6</sup> Аветисян А.Г. Инвестиционная привлекательность страны: анализ основных факторов. Финансы: теория и практика. 2020;24(4):58-74. DOI: 10.26794/2587-5671-2020-24-4-58-74 Murojaat sanasi: 06.07.2024




8. Mehnat bozori;
9. Moliyaviy tizim;
10. Bozor hajmi;
11. Biznes harakati;
12. Innovatsion qobiliyat.

Shuningdek, aholi soni, kishi boshiga YaIM AQSH dollar hisobida, 10 yillik o'rtacha YaIM o'sish sur'ati, dunyo YaIM da tutgan o'rni, YaIMda 5 yillik o'rtacha xorijiy investitsiyalarning ulushi, qayta tiklanuvchi energiya iste'moli ulushi, ishsizlik darajasi, global gender indeksi, Djini daromadi darajasi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha ham baholanadilar.<sup>7</sup>

Fikrimizcha, mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholashlar nafaqat mamlakatlarning raqobatbardoshligini ko'rsatib beradi, balki xorijiy investorlar uchun o'z mablag'larini yo'naltirishda mayoq vazifasini ham bajaradi, mamlakatlarning iqtisodiy jozibadorligini baholashning imkoniyati katta bo'ladi.

Yana bir tadqiqotchi A. Loi tomonidan ilgari surilgan mulohazaga ko'ra, korxonalar uchun investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini tanlashga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash juda muhimdir, chunki ular korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishda katta muvaffaqiyat keltiradi. Investitsiyalarni jalb qilishning optimal strategiyasini belgilashda bir qancha asosiy omillarni aniqlash mumkin.



3-rasm. Investitsiyalarni jalb qilishning optimal strategiyasini aniqlash omillari<sup>8</sup>.

Fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan omillar korxonalarda investitsion jozibadorlikni oshirishda investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu ro'yhatga korxonaning moliyaviy holati, ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha iqtisodiy va xo'jalik ma'lumotlarini ham qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodchi olim SH. Mustafaqulov fikriga ko'ra, mamlakatning investitsion jozibadorligi - hududga sarmoyaning kirib kelishini belgilovchi va investitsiya faolligi bilan baholanadigan obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy belgilar, vositalar, imkoniyatlar va cheklovlarining yig'indisidir. O'z navbatida, mamlakatning investitsion faolligini sarmoyaning kirib kelish intensivligi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Mamlakat/hududning integral investitsion jozibadorligi - bu mamlakat/hududning xo'jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko'rsatkichlarning umumiy darajasidir<sup>9</sup>.

Mahalliy iqtisodchilardan K.A. Muhitdinova korxonaning "investitsion jozibadorligi" tushunchasiga salohiyatli investorlarning maqsadlari, investitsiya jozibadorligini aniqlashning optimal nazariy va uslubiy jihatlari, rentabellik darajasi va investitsiyalarni joriy etish bilan bog'liq risklarni o'z ichiga olgan tizim sifatida baho bergan. Muallifga ko'ra, korxonaning investitsion jozibadorligi deganda ichki va tashqi omillar ta'sirida mavjud bo'lgan vaziyat tushunilishi kerak, bu investorning investitsiya maqsadlariga erishish uchun potentsiali va xavfi bilan tavsiflanadi. Korxonaning investitsion jozibadorligini baholash va diagnostika qilish har qanday investitsiyadan kutilayotgan samarani aniqlashning majburiy bosqichidir. Investitsion faoliyatni tashkil etishda aynan shunday yondashuvni tizimli deb hisoblash mumkin. Uning doirasida korxonaning investitsion salohiyati aniqlanadi va investitsiya jarayonining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa samaradorligini belgilaydi<sup>10</sup>.

7 World Bank. The Global Competitiveness Report 2019. [https://www3.weforum.org/docs/WEF\\_TheGlobalCompetitivenessReport2019.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF_TheGlobalCompetitivenessReport2019.pdf) Murojaat sanasi 07.07.2024

8 Loi, Anna. (2023). Identification of investment attraction strategies to increase the economic potential of a trading enterprise. Economics Entrepreneurship Management. 10. 10.56318/eem2023.01.008. [https://www.researchgate.net/publication/373288183\\_Identification\\_of\\_investment\\_attraction\\_strategies\\_to\\_in\\_case\\_the\\_economic\\_potential\\_of\\_a\\_trading\\_enterprise](https://www.researchgate.net/publication/373288183_Identification_of_investment_attraction_strategies_to_in_case_the_economic_potential_of_a_trading_enterprise) Murojaat sanasi 07.07.2024

9 Мустафакулов Ш.И. Инвестицион мухит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Монография

10 Mukhitdinova K.A. ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE ENTERPRISE // Экономика и социум. 2020. №4 (71). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-of-investment-attractiveness-of-the-enterprise> Murojaat sanasi: 07.07.2024.



M. Nurmuhamidova va hammualliflariga ko'ra, korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar (strategiyalar) ishlab chiqish imkonini beruvchi investitsion jozibadorlikni baholash va investitsiya hajmini bashoratlash modellaridan bir vaqtda foydalanish maqsadga muvofiq. Investitsiya hajmini bashoratlash modelida investitsion jozibadorlikni aniqlovchi har bir ko'rsatkich qanchalik ta'sir ko'rsatishga moyilligini hamda ko'rsatkichga ta'sir etish va investitsion jozibadorlik holatining o'zgarishi o'rtasida qancha vaqt o'tishini hisobga olish lozimligi, tegishli ko'rsatkich o'zgaradigan vaqtdan boshlab iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o'zgartirishga zarur bo'ladigan muddatni aniqlash uchun korrelyatsion tahlildan foydalanish tavsiya etilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Korrelyatsiya koeffitsientining maksimal qiymati kapital oqimi o'zgarishi va investitsiya jozibadorligi orasidagi bog'liqlikni ifoda etadi. Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi barcha ko'rsatkichlarini boshqaruvchining ta'sirni qabul qilish darajasidan kelib chiqib, quyidagicha tavsiflash mumkin:


1-jadval. Boshqarish obyektlari tomonidan investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarni ta'sir darajasi bo'yicha guruhlash<sup>11</sup>.

| Ko'rsatkichlar guruhining tavsifi                                                                         | Ko'rsatkichlar guruhining tarkibi                                                                                                                                                                                                                                   |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ta'sir qabul qilmaydigan ko'rsatkichlar                                                                   | Monetar siyosat<br>To'lov balansining umumiy holati<br>Neftning dunyo bahosi o'zgarishi<br>Kishi jon boshiga va birlik maydonga to'g'ri keluvchi tabiiy resurslar hajmi<br>Tashqi xavflarning ehtimolligi<br>Iqtisodiyotning barqarorligi                           |
| Kamroq ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar                                                                     | Fiskal siyosat<br>Qayta moliyalashtirish stavkasi<br>Milliy pul birligi kursining o'zgarishi<br>Aholi turmush darajasi<br>Ishsizlik darajasi<br>Noqonuniy muxolifatning ta'siri                                                                                     |
| Ta'sirni o'rtacha darajada qabul qiluvchi ko'rsatkichlar, ta'sir ularni uzoq muddatli davrda o'zgartiradi | Iqtisodiyotning umumiy holati<br>YaMMning o'sishi<br>Joriy inflyatsiya<br>Inflyatsiya dinamikasi<br>Neft-gaz majmuasining rivojlanishi<br>Atrof-muhitning holati<br>Eksportning o'sishi<br>Importning o'sishi<br>Boshqaruvchi apparatning ishchi kuchiga munosabati |
| Ta'sir ko'rsatilganda tez o'zgaruvchi ko'rsatkichlar, ammo har doim ham to'liq emas                       | Kutilayotgan YaMM hajmining o'sishi<br>Ishlab chiqarishning o'sishi<br>Investitsiyaning o'sishi<br>Iste'molning o'sishi<br>Infratuzilma ob'ektlarining rivojlanganlik darajasi<br>Solliqqa tortish darajasi<br>Iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi                |
| Ta'sirni tez qabul qiluvchi ko'rsatkichlar, o'z holatini qisqa muddatda o'zgartiradi                      | Ishchi kuchining qiymati va sifati<br>Hududning monopolashganlik darajasi<br>Fan-texnika taraqqiyotiga erishishni qo'llash darajasi<br>Ekologik inqirozlarning ehtimolligi<br>Rasmiy kapital harakati dinamikasi<br>Rasmiy savdo dinamikasi                         |

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan bayonotlar investitsion jozibadorlikning ma'lum bir qirralarini aks ettiradi. Har bir korxonaning tarmoq xususiyatlari, ishlab chiqarish ko'lami, bozorda egallagan mavqei va o'rniga ko'ra investitsion jozibadorlikni u yoki bu darajada namoyon qilishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish har

11 Нурмухамидова, М. Х. Мнтақалар инвестиция жозибадорлигини ошириш ва уларни баҳолаш услубиятини такомиллаштириш / М. Х. Нурмухамидова, С. В. Мамажанова, А. Х. Шоев. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 11 (301). – С. 282-284. <https://moluch.ru/archive/301/67986/> Murojaat sanasi: 07.07.2024.

qanday mamlakat, sanoat tarmog'i va korxonaning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi uchun murakkab, ammo hal qiluvchi jihatdir. Bu qulay siyosat, barqaror siyosiy va iqtisodiy muhit va potentsial investorlar uchun jozibador imtiyozlarning strategik aralashmasini o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, investitsion jozibadorlikning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagilarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq (4-rasm):



4-rasm. Investitsion jozibadorlikning asosiy tarkibiy qismlari<sup>12</sup>.

1. Iqtisodiy barqarorlik: Kuchli va barqaror iqtisodiyot investorlar uchun risklarni kamaytiradi, uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantiradi. Pul-kredit siyosatidagi barqarorlik, byudjet intizomi va past inflyatsiya darajasi qulay investitsiya muhitini yaratish uchun zarurdir.

2. Me'yoriy-huquqiy baza va ijtimoiy institutlar: Shaffof va samarali huquqiy tizimlar, aniq qoidalar va mulk huquqlarini himoya qilish institutlari muhim ahamiyatga ega. Bu omillar investorlarning ishonchini oshiradi va ularning investitsiyalari bilan bog'liq noaniqliklarni kamaytiradi.

3. Infratuzilmani rivojlantirish: transport, aloqa va kommunal xizmatlar nuqtai nazaridan sifatli infratuzilma juda muhimdir. Rivojlangan infratuzilma nafaqat investorlarni jalb qiladi, balki biznes faoliyati samaradorligini oshiradi.

4. Bozor hajmi va o'sish salohiyati: Katta va o'sib borayotgan bozorlarga ega mamlakatlar xorijiy investorlar uchun yanada jozibador. Turli xil va kengayib borayotgan iqtisodiyot investitsiyalarni qaytarish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

5. Inson kapitali: Malakali va ma'lumotli ishchi kuchi investorlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ta'lim va kadrlar tayyorlashga investitsiyalar inson kapitali sifatini oshirib, malakali ishchi kuchi qidirayotgan xorijiy biznes uchun mamlakatni jozibador qiladi.

6. Rag'batlantirish dasturlari: Soliq imtiyozlari, subsidiyalari va boshqa moliyaviy imtiyozlar investorning qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu dasturlar mamlakatning moliyaviy sog'lig'iga zarar etkazmasdan haqiqiy qiymatni ta'minlash uchun yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

7. Siyosiy barqarorlik: Barqaror siyosiy muhit iqtisodiy siyosatda bashoratlilikni ta'minlaydi va investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan keskin o'zgarishlar xavfini kamaytiradi. Siyosiy barqarorlik sarmoyadorlar ishonchini qo'llab-quvvatlashning asosidir.

8. Savdo siyosati: Ochiq savdo siyosati, jumladan pasaytirilgan tariflar va erkin savdo kelishuvlari mamlakatni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Ushbu siyosatlar xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtiradi va savdo va sarmoya uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikning asoslari barqaror, shaffof va samarali muhitni yaratish, o'sish va rentabellik uchun real imkoniyatlarni yaratish bilan bog'liq. Ushbu asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish orqali mamlakatlar o'zlarining investitsion jozibadorligini oshirishlari va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashlari mumkin. Korxona investitsiyalarini baholashning yagona va to'liq ishonchli versiyasi mavjud emas. Usulni tanlash jarayonida ko'plab omillarni hisobga olish kerak, jumladan:

12 Muallif ishlanmasi



maqsadlarni aniqlash, ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi va hokazo. Investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash ham investorlar, ham korxona uchun juda muhimdir. Ular kompaniyaning bozordagi mavqeyini, uning kuchli va zaif tomonlarini tushunishlari kerak, ular qanday qadamlar qo'yish kerakligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goncharuk A.G., Karavan S. The investment attractiveness evaluation: methods and measurement features// polish journal of management studies. 2013 vol.7.
2. Gutkevych, Svitlana. Investment attractiveness of industries: features and trends. Baltic Journal of Economic Studies. 5. 50. 10.30525/2256-0742/2019-5-3-50-58. (2019).
3. Kapustenko I.S. Развитие инвестиционного потенциала горнодобывающей промышленности дальневосточного региона//Альманах современной науки и образования, № 5 (72) 2013. [https://www.gramota.net/articles/issn\\_1993-5552\\_2013\\_5\\_29.pdf](https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2013_5_29.pdf) Murojaat sanasi 04.07.2024
4. Канашкин, Н. С. Инвестиционная привлекательность добывающей промышленности / Н. С. Канашкин, А. П. Шабалин // Молодежная неделя науки ИПМЭиТ: Сборник трудов Всероссийской студенческой научно-учебной конференции. В 6-ти частях, Санкт-Петербург, 02–04 декабря 2022 года. Том Часть 2. – Санкт-Петербург: ПОЛИТЕХ-ПРЕСС, 2021. – С. 23-26. – EDN BJWDGH.
5. Матвеев, В. В. Инвестиционная привлекательность регионов в современных реалиях / В. В. Матвеев, И. В. Резвякова // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. – 2020. – Т. 10, № 4. – С. 114-124. – EDN JATBND.
6. Аветисян А.Г. Инвестиционная привлекательность страны: анализ основных факторов. Финансы: теория и практика. 2020;24(4):58-74. DOI: 10.26794/2587-5671-2020-24-4-58-74 Murojaat sanasi: 06.07.2024
7. World Bank. The Global Competitiveness Report 2019. [https://www3.weforum.org/docs/WEF\\_TheGlobalCompetitivenessReport2019.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF_TheGlobalCompetitivenessReport2019.pdf) Murojaat sanasi 07.07.2024
8. Loi, Anna. (2023). Identification of investment attraction strategies to increase the economic potential of a trading enterprise. Economics Entrepreneurship Management. 10. 10.56318/eem2023.01.008. [https://www.researchgate.net/publication/373288183\\_Identification\\_of\\_investment\\_attraction\\_strategies\\_to\\_in\\_case\\_the\\_economic\\_potential\\_of\\_a\\_trading\\_enterprise](https://www.researchgate.net/publication/373288183_Identification_of_investment_attraction_strategies_to_in_case_the_economic_potential_of_a_trading_enterprise) Murojaat sanasi 07.07.2024
9. Мустафакулов Ш.И. Инвестицион мухит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Монография
10. Mukhitdinova K.A. ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE ENTERPRISE // Экономика и социум. 2020. №4 (71). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-of-investment-attractiveness-of-the-enterprise> Murojaat sanasi: 07.07.2024.
11. Нурмухамидова, М. Х. Минтақалар инвестиция жозибадорлигини ошириш ва уларни баҳолаш услубиятини такомиллаштириш / М. Х. Нурмухамидова, С. В. Мамажанова, А. Х. Шоев. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 11 (301). — С. 282-284. <https://moluch.ru/archive/301/67986/> Murojaat sanasi: 07.07.2024.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

